

JISMONIY MADANIYAT TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI KASBIY PEDAGOGIK MADANIYATNI TARBIYALASDA TAJRIBA-SINOV ISHLARINING SAMARADORLIK DARAJASI

Latipov Ravshanbek Ismayilovich

Toshkent davlat pedagogika universiteti Jismoniy tarbiya va sport kafedrası dotsenti

Ramazanov Murodjon Oydin o'g'li

Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi 3 kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10401384>

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik madaniyatni tarbiyalasda tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasi shakllashtirish.

Tayanch so'zlar: Samaradorlik, tajriba-sinov, mustaqil ta'lim jarayoni, kasbiy madaniyat, bo'lajak mutaxassislarining kasbi.

Tizimda ko'rsatilgan "Jismoniy tarbiya va sport" fanlari sohasidagi fanlar bo'yicha talabalar o'zlari tanlagan ixtisoslikka oid ma'lum ko'nikma va malakalarni egallaydilar. O'rganayotgan sohalarini ongli, chuqur va puxta egallab olishlari, malakasini yanada mukammallashtirishlari hozirgi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asoslarini o'rganadilar. Bularga esa Jismoniy tarbiya va sport fanlari sohasidagi ixtisosga oid ma'lum nazariy tayyorgarliklar orqali erishiladi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida bo'lajak pedagoglarda kasbiy madaniyatga doir nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda birinchi navbatda, mustaqillik, fikr almashish, tashabbuskorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratildi.

Bunda fanlar, yangi pedagogik texnologiya, Jismoniy tarbiya va sport fanlari sohasidagi mutaxassislikka doir bilimlar, kompyuter texnologiyasi va uni amaliyotga joriy etish, dasturlash bilan bog'liq ko'nikma va malakalarning yuqori darajada o'zlashtirilishi nazarda tutildi. Shu jarayonda talabaning "Jismoniy tarbiya va sport" fanlari sohasidagi kasbga bo'lgan munosabati aniqlandi.

Ikkinchidan, "Jismoniy tarbiya va sport" fanlari sohasidagi pedagog kasbiy madaniyatining rivojlanganlik darajasini aniqlashga ahamiyat berildi. Bunda uning maqsadga erishishdagi qat'iyligi, yangi vaziyatlarda bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil qo'llash, yangi muammolarni ko'ra bilish, ijodkorlik bilan birga axborot vositalari va uslublari, maqsadli faoliyat dasturi asoslari kabi bilimlarni egallashi natijasida mutaxassislik faoliyati: Faoliyatni tashkil etish, jihozlash yangi texnologiyalarini o'zlashtirish darajasi, internet tarmoqlarida ishlash ko'nikma va malakalari aniqlandi. Bo'lajak "Jismoniy tarbiya va sport" fanlari sohasidagi pedagoglarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ilmiy-texnik manbalar, axborot fanlaridan o'zlashtirgan bilimlarini amalda qo'llash, o'z vazifalarini mustaqil hal etish, shaxsiy axborot fondini tashkil etish malakalarini shakllantirish yuzasidan tegishli xulosalar chiqarildi.

Uchinchidan, bo'lajak "Jismoniy tarbiya va sport" fanlari sohasidagi pedagogning ijodiy salohiyati kasbiy-ijodiy tayyorgarligi, o'z kasbini aniq tasavvur etishi, oliy ta'lim va professional ta'lim maktablari faoliyatini bilishi, fikr almashish va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi bilan bog'liqligi yuzasidan muayyan xulosalarga kelindi hamda shunga doir tavsiyalar berildi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida talabaning muammoli vaziyatlarni hal etish, jamoa ijodiy faoliyati haqidagi bilimlari, ta'lim-tarbiya uslublari va yangi pedagogik

texnologiya faoliyatiga asoslangan holda vazifalarni amaliy hal etish ko'nikma va malakalarining shakllanishi o'z isbotini topdi.

To'rtinchidan, talabaning mehnat faoliyatida ijtimoiy faollikni namoyon etishi, oliy ta'lim jarayonida yangi muammolarni ko'ra bilishi, ularni hal etish yo'llarini izlab topishi, muhokamalarda mustaqil fikr aytishi va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi muhimligi ilgari surildi. Bunga amal qilishi natijasida talabaning jamiyat taraqqiyotida fan-texnikaning rivojlanishi, yangi O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy jabhalardagi yutuqlari, mehnat jamoasi faoliyatini ifodalovchi qonunlar haqidagi bilimlari, ta'lim-tarbiya uslublardan foydalanish, jamoada mehnat qilish ko'nikma va malakalari shakllanishi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari natijalariga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, jamiyat hayotida yetuk kadrlarning, har qanday vaziyatda mutaxassislikni egallashi, o'z bilimlari asosida kasbiy madaniyatini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Shu munosabat bilan kasbiy bilim, kasbiy yo'nalish, kasbga bo'lgan qiziqish. Kognitiv, mehnatga tayyor bo'lish, kasbiy mahorat, kasbiy faoliyat-Empirik, mehnatga ijodiy yondashish, ijtimoiy faollik-Kreativ kabi komponentlarni o'z ichiga olgan talaba kasbiy madaniyatini aks ettiruvchi kognitiv, empirik va kreativ mezonlari sifatida qabul qilindi.

Ushbu mezonlarning shakllanganlik darajasi yuqori, o'rta, quyi darajalarni tashkil etdi:

Yuqori darajaga Jismoniy tarbiya va sport fanlari sohasidagi mutaxassisligini yaxshi tushungan talabalar kiritildi. Ular kasbiy madaniyatga doir bilimlarni chuqur egallab, o'zlarining tashqi va ichki madaniyatlari bilan jamoat joylarida hurmat qozonadilar.

Bu guruhdagi Jismoniy tarbiya va sport fanlari sohasidagi talabalarda o'qituvchilik xususiyatlari ustun bo'lib, ular o'z bilimlari bilan ajralib turdilar. Ular Jismoniy tarbiya va sport fanlari sohasidagi mutaxassislik yo'nalishlari haqidagi bilimlariga amal qiladilar. O'z do'stlari o'rtasida hurmatga loyiq bo'lib, mustaqil ta'lim olishga harakat qiladilar, mustaqil va ma'suliyatli bo'lishga intiladilar. Ularning bilish darajalari yuqori bo'lib, o'quv imkoniyatlaridan unumli foydalanadilar. O'z bilimlari bilan boshqalarga namuna bo'ladigan talabalarining diqqatlari barqaror, xotirasi mustahkam, fikrlash doirasi keng, tafakkur salohiyati yaxshi shakllangandir. Ular har bir topshiriqni mustaqil ravishda oxirigacha bajaradilar, har bir ishga ma'suliyat bilan qaraydilar.

O'rta daraja-bu guruhdagi Jismoniy tarbiya va sport fanlari sohasidagi talabalar kasb madaniyati mohiyatini tushunadilar, lekin doimo bunga amal qilmaydilar. Aniq maqsadga erishishning yo'llari va omillarini tushunib yetmaydilar. Ular kasb haqida yetarli bilimga ega bo'lib, mutaxassislikni to'g'ri ajratadilar hamda boshqa kishilarda bunday xususiyatlar yo'qligini biladilar, lekin ijtimoiy hayotda tajribalari yetarli bo'lmaganligi uchun xatti-harakatlarida salbiy holatlar uchraydi. Bo'sh vaqtlarini aksariyat hollatda unumli o'tkaza olmaydilar. O'quv imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaydilar. Ular ta'sirchan, voqea-hodisalarga beriluvchan bo'lib, o'zlarining xatti-harakatlarini tushunadilar va bunda o'zlarini ayblaydilar. Ammo ochiqchasiga qarshi kurashmaydilar. Bunday guruhga xos xususiyat mustaqil bilimning yetishmasligidir. Ularning tashqi ko'rinishidagi qat'iylik shunchaki ko'rinish bo'lib, doimiy emasdir.

Quyi daraja-bu guruhdagi Jismoniy tarbiya va sport fanlari sohasidagi talabalar kasbiy madaniyat tushunchasi va mohiyati haqidagi bilimlarga to'liq ega emasligi bilan farqlanadilar. Ular o'zlarining xatti-harakatlarini to'g'ri rejalashtira olmaydilar. Qo'yilgan talablarni

bajarishda xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Ularda kasb madaniyatini buzish hollari uchraydi. Mustaqil bilimga ega bo'lgan talabalar ustidan kuladilar, ularni tan olmaydilar. Ularga hech qanday talab qo'yilmaydi va nazorat qilinmaydi. Shuning uchun ham ular o'z-o'zini boshqara olmaydilar. Ularning faoliyatida mas'uliyatsizlik, befarqlik ko'rinadi. Fikrlari tarqoq bo'lib, o'qishga munosabatlari o'z tengdoshlariga nisbatan sezilarli darajada pasaygan bo'ladi. Bu talabalarning barcha fanlardan o'zlashtirish darajasining pasayishga sabab bo'ladi. Shu sababli, guruh rahbari va fan o'qituvchilari ular bilan yakka tartibda mashg'ulotlar olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Bu guruh talabalarining faqatgina o'qishiga emas, balki tarbiyasiga ham alohida e'tibor berish lozim.

Yuqorida taklif etilgan mezon va baholash darajalari asosida tanlab olingan tajriba va nazorat guruhlarida tajribadan oldingi va tajribadan keyingi natijalar olindi.

1-jadval

Nazorat va tajriba guruhlarining tajribadan oldingi ko'rsatkichlari

Mezonlar	Ta'lim muassasalar	Guruh	Talabalar soni	Uuqori		O'rta		Quui	
				5	%	4	%	3	%
Kognitiv	Namangan davlat universiteti	Tajriba guruhi	52	5	9,6%	13	25,0%	34	65,4%
		Nazorat guruhi	53	4	7,5%	15	28,3%	34	64,2%
	Urgensh davlat universiteti	Tajriba guruhi	52	5	9,6%	12	23,1%	35	67,3%
		Nazorat guruhi	54	4	7,4%	14	25,9%	36	66,7%
	Toshkent davlat pedagogika universiteti	Tajriba guruhi	53	5	9,4%	11	20,8%	37	69,8%
		Nazorat guruhi	52	4	7,7%	12	23,1%	36	69,2%
	Jami	Tajriba guruhi	157	15	9,6%	36	22,9%	106	67,5%
		Nazorat guruhi	159	12	7,5%	41	25,8%	106	66,7%
Emirik	Namangan davlat universiteti	Tajriba guruhi	52	5	9,6%	12	23,1%	35	67,3%
		Nazorat guruhi	53	5	9,4%	13	24,5%	35	66,0%
	Urgensh davlat universiteti	Tajriba guruhi	52	4	7,7%	14	26,9%	34	65,4%
		Nazorat guruhi	54	5	9,3%	13	24,1%	36	66,7%
	Toshkent davlat pedagogika universiteti	Tajriba guruhi	53	5	9,4%	13	24,5%	35	66,0%
		Nazorat guruhi	52	4	7,7%	14	26,9%	34	65,4%
	Jami	Tajriba guruhi	157	14	8,9%	39	24,8%	104	66,2%
		Nazorat guruhi							

		Nazorat guruhi	159	14	8,8%	40	25,2%	105	66,0%
Kreativ	Namangan davlat universiteti	Tajriba guruhi	52	4	7,7%	12	23,1%	36	69,2%
		Nazorat guruhi	53	5	9,4%	11	20,8%	37	69,8%
	Urgensh davlat universiteti	Tajriba guruhi	52	5	9,6%	13	25,0%	34	65,4%
		Nazorat guruhi	54	4	7,4%	15	27,8%	35	64,8%
	Toshkent davlat pedagogika universiteti	Tajriba guruhi	53	4	7,5%	11	20,8%	38	71,7%
		Nazorat guruhi	52	5	9,6%	9	17,3%	38	73,1%
	Jami	Tajriba guruhi	157	13	8,3%	36	22,9%	108	68,8%
		Nazorat guruhi	159	14	8,8%	35	22,0%	110	69,2%

Dastlabki olingan natijalarda xar bir mezon bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlarining baholash darajalari bo'yicha ko'rsatkichlari tajriba va nazorat guruhlarida bir biriga yaqinligi kuzatildi. Bunda tajriba guruhlar va nazorat guruhlaridagi baholash darajalari bo'yicha quyi darajadaga ega bo'lgan talabalar ko'pchiligi ya'ni 64,3% dan 73,1% gacha ekanligi tajriba sinov ishlari dasturini davom ettirish kerakligini bildiradi. Bu ko'rsatkichlarning umumiy natijalari qiyosiy taxlili kuyidagi diagrammada keltirildi.

Tadqiqot ishi dasturidagi olib borilgan tajriba sinov ishlaridan so'nggi natijalar olindi.

References:

1. Sharipov Sh.S. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi. O'quv jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash yo'llari. – T.: TDIU, 2005.
2. Ro'zieva D.I. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. P.f.d. olish uchun yozilgan dissertatsiya Avtoreferati-T., 2007.
3. Sharifbaeva X.Ya. «Kasb-hunar kollejlari o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari (qiyosiy tadqiqotlar asosida)» mavzusidagi dissertatsiya. ped.fan.nom. diss.Avtoref. – T., 2007.
4. Hodges S., G. Shildren as readers. London: Edusation, 2009.
5. Innsheon deslaration /Edusation 2030: Towards inslusive and euitable qualitu edusation ang lifelong learning for all (Word Edusation Forum, 19-22 may 2015, Insheon, Rerublis of Korea).
6. Рустамов, Л. Х. (2013). Источники и этапы развития теории и методики физического воспитания. *Педагогика и современность*, (3), 69-76.
7. Рустамов, Л. Х. (2013). Физическая культура и ее влияние на организм человека. In *Актуальные вопросы современной науки* (pp. 99-103).